O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

BADIIY MATNDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY IMKONIYATLARI

THE LINGUOCULTURAL POTENTIAL OF ONOMASTIC UNITS IN A LITERARY TEXT

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/LXEQ2331

Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna
O‘zbekiston, Toshkent shahri
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti
e-mail: shaxloxontursinbayeva@gmail.com
ORCID: 0009-0003-2369-3962

Annotation. *The article evaluates the linguocultural and functional-semantic properties of onomastic units within the historical discourse of Muhammad Ali’s epic novel “The Great Empire”. The study explores how anthroponyms, toponyms, and chrematonyms shift from simple nominative markers to dynamic cultural codes that embody national-historical memory and socio-spatial hierarchies. Through contextual and textual analysis, the author demonstrates that the semantic depth of proper names is actualized via the interaction of micro-textual environments and the reader's cultural background. The research highlights the significance of functional onomastics in constructing the aesthetic architecture of historical fiction.*

Keywords: *onomastics, anthroponym, toponym, chrematonym, historical discourse, linguocultural code, literary text.*

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini ularning milliy-madaniy mazmuni, tarixiy xotira va inson tafakkuri bilan aloqadorlikda tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Shu nuqtayi nazardan onomastika – atoqli otlarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi – nafaqat nomlarning tuzilishi, kelib chiqishi va qo‘llanishini, balki ularning muayyan ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstda yuzaga keladigan ma’no imkoniyatlarini ham aniqlashga xizmat qiladi.

Jahon onomastik paradigmasida atoqli otlarning lingvomadaniy va konnotativ tabiati, ularning matn tarkibida milliy-madaniy kod hamda mental simvol sifatida namoyon bo‘lish qonuniyatlari V.N. Teliya va Y.M. Lotman kabi yetakchi olimlarning fundamental tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan

[Суперанская, 1973: 91]. G‘arb sotsiolingvistikasi va nomlar falsafasida esa onomastik birliklarning referensial va kontekstual imkoniyatlari, ularning matn yaratish jarayonidagi o‘rni S. Kripke va G. Frege kabi mutafakkirlar tomonidan keng o‘rganilgan [Никонов, 1974: 265].

O‘zbek tilshunosligi milliy onomastik makonining tizimli shakllanishi va evolutsion rivojlanishida E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qorayev, H. Hasanov, B.Yo‘ldoshev singari nufuzli olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy maktablar fundamental poydevor vazifasini bajaradi [Qorayev, 2006: 12]. Xususan, E.Begmatovning o‘zbek milliy antroponimiyasining lisoniy va sotsiomadaniy qonuniyatlarini ochib beruvchi tadqiqotlari [Begmatov, 2013: 45], S. Qorayevning toponimikaning nazariy-metodologik muammolari hamda yozma yodgorliklar onomastikasiga bag‘ishlangan ishlari [Qorayev, 2006: 88], shuningdek, T. Nafasovning mintaqaviy oykonomiya, etnotoponimiya va leksikografiya masalalarini qamrab olgan fundamental izlanishlari [Nafasov, 2007: 14] o‘zbek nomshunosligining ilmiy-metodik paradigmalarini belgilovchi bosh manbalar hisoblanadi.

Badiiy diskurs tarkibidagi atoqli otlar (poetonimlar) lingvistik tabiatiga ko‘ra umumiy lisoniy tizimdagi onomastik birliklardan o‘zining estetik-funksional dominantligi va matn yaratish imkoniyatlari bilan tubdan farqlanadi. Chunki ijodkor badiiy to‘qima yoki real tarixiy nomlardan foydalanish jarayonida ularni shunchaki obyektni atash vazifasi bilan chegaralamay, balki matnning umumiy kompozitsion, lingvopoetik va pragmatik arxitektonikasiga bo‘ysundiradi, ularni estetik transformatsiyaga uchratadi [Xudoyberganova, 2019: 14]. Shu sababli badiiy matn onomastikasi, xususan, badiiy matn jozibadorligini ta’minlovchi poetonimlar tizimini o‘rganish zamonaviy o‘zbek tilshunosligi, matn lingvistikasi va lingvokulturologiyasining eng dolzarb va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanmoqda. Badiiy matndagi onomastik birliklar mikromatnda obrazlilik, intertekstuallik, tarixiylik hamda muallifning individual-konseptual dunyoqarashini ifodalash kabi ko‘p qatlamli sotsiomadaniy va estetik funksiyalarni muvaffaqiyatli bajaradi.

“Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasining markazida Amir Temur davri bilan bog‘liq tarixiy voqelik va shaxslar turadi. Shu bois asarda uchraydigan antroponimlar, avvalo, tarixiy shaxslarning shaxsini aniqlovchi nominativ birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday nomlar tarixiy personajni boshqa shaxslardan farqlash, uning tarixiy makon va zamondagi o‘rnini belgilash vazifasini bajaradi.

Masalan, Amir Temur antroponimi matnda oddiy shaxs nomi sifatida emas, balki tarixiy shaxs haqidagi jamoaviy xotirani faollashtiruvchi nom sifatida ham funksiyalanadi. Antroponimning bunday imkoniyati uning tarixiy shaxsga ishora qiluvchi referensial xususiyati bilan bog‘liq. “Amir Temur” nomi bilan tarixiy shaxs, uning davri, siyosiy faoliyati va temuriylar davriga oid bilimlar tizimi ham faollashadi.

Shu jihatdan antroponimni lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilishda nomning lug‘aviy ma’nosi bilan uning matndagi kontekstual-madaniy vazifasini bir-biridan farqlash lozim. Har qanday tarixiy shaxs nomi avtomatik ravishda qahramon xarakterining “kodini” bermaydi. Biroq nom tarixiy-madaniy xotira bilan bog‘langan bo‘lsa, u badiiy matnda muayyan assotsiativ maydonni yuzaga keltirishi mumkin.

Asarda antroponimlar shunchaki yorliq emas, balki davr ijtimoiy mentalitetini aks ettiruvchi lisoniy-madaniy vositadir. Masalan, o‘zbek xalqi nutqiy etiketida “oqa” (og‘a) so‘zi nafaqat qarindoshlikni, balki yoshi ulug‘, martabali ayollarga nisbatan izzat-ikromni ham ifodalagan. Bu birlik shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy nufuzini ko‘rsatadi. Jahongir Mirzoning dildagi kechinmalarini aynan enasi Qutlug‘ Turkon-oqaga ishonishi malikaning oilada va shahzoda tarbiyasida naqadar yuksak mavqega ega bo‘lganini bildiradi: *“Faqat bir odamga suyanadi – enasi Qutlug‘ Turkon-oqag‘a! Jahongir Mirzo Qutlug‘ Turkon-oqag‘ani ena deb o‘rgangandi”* [Muhammad Ali, 2019: 152]. Demak, ism tarkibidagi ushbu so‘z tarixiy shaxsning yuqori ijtimoiy maqomini ochib beruvchi madaniy kod vazifasini bajaradi.

Asardagi *“To‘liq ismi Muhammad Chug‘ora-dodxoh esa-da, Temurbek “Mamat” deyishga o‘rgangandi”* [Muhammad Ali, 2019: 154] degan parcha o‘ziga xos lingvopoetik xususiyatga ega. Bu o‘rindagi Mamat antroponimi tilimizdagi nutqiy tejamkorlik qonuniyatini aks ettirish bilan birga, hukmdor va uning yaqin yordamchisi o‘rtasidagi yuksak ishonchni ko‘rsatadi. Ushbu variantning tanlanishi o‘sha davr chig‘atoy tili jonli so‘zlashuv muhitini qayta tiklashga va Amir Temurning yaqinlariga nisbatan samimiy xarakterini ochib berishga xizmat qilgan. Shuningdek, xalqimiz mentalitetida muqaddas ismlarga bo‘lgan cheksiz hurmat tufayli ularni kundalik hayotda biroz fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llash an’anasi ham asar tilida o‘z ifodasini topgan.

“Shayx Shamsiddin Kulol” antroponimi tarkibidagi tasavvufiy unvon (shayx) va ism ma’nosi (Shamsiddin – “dinning quyoshi”) shaxsning yuksak diniy-ma’naviy maqomini ifodalaydi. Unga birikkan kasb-hunar leksikasiga oid

“Kulol” determinanti esa tasavvuf falsafasidagi “dil ba yor-u, dast ba kor” (qo‘ling mehnatda, qalbing Allohda bo‘lsin) g‘oyasining lisoniy in’ikosidir. Bu nom o‘sha davrda oliy tabaqa vakillarining ham halol jismoniy mehnat bilan yashaganiga doir milliy-madaniy tushunchani aks ettiradi. Demak, ushbu murakkab antroponimik tizim shunchaki individual nom bo‘lmay, davrning ijtimoiy-madaniy hayotini, diniy va dunyoviy qadriyatlar muvozanatini ko‘rsatuvchi lisoniy hujjattir. Romanda bu holat quyidagicha tasvirlangan: *“Padari buzrukvori Amir Tarag‘ay topshirig‘i bilan Temurbek Shayx Shamsiddin Kulolning Shahrisabz chekkasidagi keng-mo‘l chorbog‘iga yo‘l oldi”* [Muhammad Ali, 2019: 156].

Saroymulkxonim nomi tarkibidagi forscha “saroy” (hukmdor qarorgohi), arabcha “mulk” (saltanat) va turkiy “xonim” unvonlari nafaqat “davlatning asosi” degan ramziy ma’noni bildiradi, balki malikaning muhtasham qasrda dunyoga kelganiga ham ishora qiladi. Bu ism orqali uning Chingizxon sulolasiga mansubligi hamda Amir Temur saltanatining siyosiy-huquqiy qonuniyligini ta’minlagan bosh poydevor ekanligi muhrlangan. Shu bois, bu nom shunchaki shaxsiy ot bo‘lmay, malikaning tug‘ilishidan boshlab hukmdorlik sulolasiga daxldorligini, saroy hokimiyatidagi mutloq nufuzi va yuksak ijtimoiy maqomini ifodalaydi. Romanda bu holat quyidagicha tasvirlangan: *“Amir Tarag‘ay bilan Qozon Sultonxonning Zanjirsaroy qasriga borganlarida besh yoshlardagi suluvgina xon qizini ko‘rgandi. Shunchaki ismini bilib qo‘ygisi keldi, Saroymulkxonim, dedilar. Muhtasham saroyda tug‘ilganidanmikin, shunday ataganlar?”* [Muhammad Ali, 2019: 160].

Shunday qilib, romandagi antroponimlar shaxs ismi, tarixiy voqelik va ijtimoiy-madaniy muhit o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib beradi.

Tarixiy roman uchun makon masalasi alohida ahamiyatga ega. Chunki tarixiy voqealarning qayerda sodir bo‘layotgani ularning tarixiy mazmunini anglashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli asardagi toponimlar badiiy makonni aniq belgilash bilan birga, tarixiy xotirani faollashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Toshqo‘rg‘on joy nomi turkiy “tosh” (mustahkamlik) va “qo‘rg‘on” (mudofaa qal’asi) so‘zlaridan tashkil topib, “toshdan qurilgan mustahkam istehkom” ma’nosini bildiradi. Bu nom shunchaki geografik hududni emas, balki xalq hayotidagi xavfsizlik va harbiy qudrat ramzini anglatgan. Romanda Toshqo‘rg‘on obrazi yosh Temurbekning qilichbozlik, kurash va tosh ko‘tarish kabi mashqlar orqali harbiy mahoratini oshirgan ilk mardlik maktabi sifatida

tasvirlangan. Bu holat asarda quyidagicha aks etadi: *“Endigina o‘n beshga kirgan, dunyo bexabar, sodda va yalangto‘sh Temurbek... Xayolida esa... tezroq jo‘ralarini olib, otlarni gijinglatib Toshqo‘rg‘onga jo‘nashlari kerakligi, tog‘ yo‘llari... katta maydonda o‘tkaziladigan qilichbozlik, kurash, tosh ko‘tarish mashqlari... g‘aroyib safarning gashti, zavqi-shavqi g‘ujg‘on o‘ynardi”* [Muhammad Ali, 2019: 157].

Xevaq (Xiva) toponimi asosida yotgan qadimiy quduq rivoyati “najot maskani va shirin suv” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, xalq xotirasida obodlik va hayot manbai sifatida muhrlangan [Hasanov, 1965: 32]. Romanda bu joy nomi uzoq va mashaqqatli tarixiy safar yo‘nalishini ko‘rsatuvchi geografik makon sifatida aks etadi: *“Omul shahridan kemaga tushib borish eng maqbul yo‘l. Xevaqgacha o‘n kun... Xevaq va Kotdan so‘ng Xorazm voliysi Husayn So‘fi poytaxti Gurganjgacha kamida ikki-uch kun zahmat chekilar-ov…”* [Muhammad Ali, 2019: 203].

Safiddiz (Oq qal’a) toponimi forscha “safid” (oq, pokiza) va “diz” (qal’a) so‘zlaridan hosil bo‘lib, “oq tosh yoki ganchdan qurilgan istehkom” ma’nosini bildiradi. O‘rta asrlar Sharq madaniyatida qal’a nomlariga nisbatan “oq” rangining qo‘llanilishi joyning daxlsizligi, yuksalishi hamda g‘alaba va omonlik maskani ekanligini anglatuvchi ramziy ma’noga ega [Qorayev, 2006: 88]. Romanda bu nom tarixiy-adabiy an’analarga bog‘lanib, harbiy istehkomning mustahkamligini ko‘rsatish uchun xizmat qilgan: *“...Shibirg‘onning Anjoday mustahkam qal’asi bor, u haqda hatto “Shohnoma”da eslab o‘tilgan, uni ulug‘ shoir Firdavsiy Tusiy “Safiddiz” deb atagan…”* [Muhammad Ali, 2019: 263].

Shunday qilib, tarixiy romanlarda toponimlarning bosh vazifasi – voqelik sodir bo‘lgan makonni aniqlashtirish va o‘quvchi ongida muayyan tarixiy-madaniy tasavvurlarni jonlantirishdir.

Ktematonimik birliklar moddiy-madaniy obyektlarning atoqli nomlarini ifodalaydi. O‘zbek onomastikasida ktematonimlarning lisoniy tabiati va ularning boshqa atoqli otlar bilan munosabati alohida o‘rganilgan [B.Yo‘ldoshev, 2011: 45]. Shu jihatdan, romandagi Oqsaroy va Ko‘ksaroy birliklarining vazifasini faqat joy bildirish (toponim) tarzida chegaralash yetarli emas. Bu nomlar muayyan tarixiy davr, davlat hokimiyati va hukmdorlik muhiti bilan bog‘liq tushunchalarni faollashtiradi. Ular me’moriy obyekt bo‘lishdan tashqari, Amir Temur saltanatining mafkuraviy va siyosiy salohiyatini ifodalovchi pragmatik funksiyaga ega bo‘lib, matnda ulug‘vorlik hamda davlat qudrati konseptlarini moddiylashtiradi.

Romanda saroylar tasviri va ularning nomlanish sabablari badiiy ifoda orqali aniq ko‘rsatilgan: *“...minoralar xuddi yo‘g‘on mahobatli ko‘k belboqqa o‘xshab ketishi lozim... Ulkan qasr oy yorug‘ida ajabtovur jilolanib oqorib ko‘rinadi, yaraqlashi atrof borliqni yoritadi, nomi shundan “Oqsaroy” deb ataladi…”* [Muhammad Ali, 2019: 210]. Shuningdek, davlat ahamiyatiga molik siyosiy jarayonlar ham makon bilan bog‘lanadi: *“– Amir Sohibqiron janobi oliylari bugun ertalab Bog‘i Chinordan Ko‘ksaroyga yo‘l oldilar... sharafiga oliy mashvarat chaqirishni buyurdilar!”* [Muhammad Ali, 2019: 31].

Madaniyatshunoslikda Oqsaroy nomi davlatning tinchlik va adolatli saltanat poydevori ekanligini ifodalovchi me’moriy ramz hisoblanadi. Samarqanddagi Ko‘ksaroy tarkibidagi “ko‘k” (osmon, mangulik va ilohiylik) so‘zi esa saltanatning cheksiz kuchi va abadiyatini lisoniy muhrlab turadi. Romanda bu ikki saroy oddiy bino emas, balki buyuk saltanatning ikki buyuk ustuni – adolat va qudrat maskanlari sifatida aks etgan. Demak, mazkur birliklar badiiy matnda tarixiy makonni yaratish bilan bir qatorda, hokimiyat hududi va moddiy madaniyatning lisoniy ifodasi vazifasini bajaradi.

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasidagi onomastik tizimni lingvomadaniy va funksional-semantik tadqiq etish atoqli otlarning badiiy diskursda universal lingvistik kodlar ekanligini ko‘rsatadi. Asardagi antroponimlar (Amir Temur, Qutlug‘ Turkon-oqa, Mamat, Saroymulkxonim) shunchaki nominativ yorliq bo‘lmay, davr mentaliteti, ijtimoit hokimiyat va milliy etiket me’yorlarini moddiylashtiradi. Toponimik birliklar (Toshqo‘rg‘on, Xevaq, Safiddiz) geografik makonni aniqlashtirish barobarida, o‘quvchi ongida daxlsizlik va obodlik kabi tarixiy xotira komponentlarini faollashtiradi. Oqsaroy va Ko‘ksaroy kabi ktematonimlar esa hokimiyat hududining lisoniy in’ikosi o‘laroq, saltanatning siyosiy nufuzi, adolati va abadiyligi konseptlarini estetik shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, epopeyadagi poetonimlar tarixiy-madaniy axborotni mujassamlashtiruvchi dinamik tizimni tashkil etadi. Har bir onomastik birlikning lingvomadaniy mohiyati lug‘aviy izoh doirasidan chiqib, konkret matniy kontekst, tarixiy referensiya va o‘quvchining fon bilimlari sintezida aktualizatsiyalashadi. Bu birliklarni funksional-semantik o‘rganish tarixiy badiiy matnlarning konseptual arxitektonikasini yoritishda fundamental ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.

2. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965. – 80 b.

3. Muhammad Ali. Ulug‘ saltanat. Roman-epopeya. – Toshkent: Sharq, 2019. – 520 b.

4. Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 288 b.

5. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.

6. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – 145 b.

7. Xudoyberganova D.S. Linguostylistic peculiarities of onomastic units in Uzbek literary text. – Tashkent: Universitet, 2019. – 120 p.

8. Никонов В.А. Имя и society. – Москва: Наука, 1974. – 278 с.

9. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – 366 с.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**